

**TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI**

Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi

alidjanovnaaa999@email.com

*O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti,
Toshkent, O'zbekiston.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'lim tizimlari va sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarga bilim olishning yangi imkoniyatlarini yaratib, o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim rol o'ynashi, shuningdek, O'zbekistonda ta'lim sohasidagi raqamli transformatsiya jarayoni va bu sohadagi tadqiqotlarning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Raqamli texnologiyalar, ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt, O'zbekiston, BMT, barqaror rivojlanish, ta'lim islohotlari, raqamli platformalar, ta'limda innovatsiyalar.*

THE ROLE OF DIGITAL TECHNOLOGY IN EDUCATION

Abstract: *This article provides information about the role of digital technologies, distance learning systems and artificial intelligence in the educational process. Digital technologies play an important role in making the educational process more effective and interactive by creating new opportunities for students to learn, as well as the digital transformation process in the field of education in Uzbekistan and the importance of research in this field.*

Keywords: *Digital technologies, educational system, distance education, artificial intelligence, Uzbekistan, UN, sustainable development, educational reforms, digital platforms, innovations in education.*

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли цифровых технологий, систем дистанционного обучения и искусственного интеллекта в образовательном процессе. Цифровые технологии играют*



важную роль в повышении эффективности и интерактивности образовательного процесса, создавая новые возможности для обучения студентов, а также процесса цифровой трансформации в сфере образования в Узбекистане и важности исследований в этой области.

Ключевые слова: Цифровые технологии, система образования, дистанционное образование, искусственный интеллект, Узбекистан, ООН, устойчивое развитие, образовательные реформы, цифровые платформы, инновации в образовании.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining deyarli barcha jabhalarida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Raqamli texnologiyalar axborotni raqamli shaklda qayta ishlash, uzatish va saqlashga asoslangan texnologiyalar majmuasi bo‘lib, ular kompyuterlar, internet, sun‘iy intellekt, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik kabi texnologiyalarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda, raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiyot, tibbiyot, biznes va muhandislik sohalarida, balki ta‘lim tizimida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonlari yanada samarali va interaktiv bo‘lib, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotganligi ham barchamizga sir emas. Shuningdek, ular axborot almashinuvini tezlashtirish, jarayonlarni avtomatlashtirish va innovatsiyalarni rivojlantirish imkonini ham beradi. Har qanday yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida, avvalo, iqtisodiyot va biznes yetakchi o‘rin tutadi. Shubhasiz, zamonaviy ta‘lim ham ushbu jarayonlardan chetda qolmaydi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasidagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, har bir universitetda raqamli platformalar va masofaviy ta‘lim tizimlari mavjud bo‘lishi shart. Ayniqsa, 2019-yilda boshlangan pandemiya davrida ya‘ni, COVID-19 paytida ham bu jarayon yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bugungi kunda, davlat va jamiyatning barcha asosiy tarmoqlari raqamlashtirilgan bo‘lib, ushbu rivojlanish jarayoni doimiy takomillashib bormoqda. Shu sababli, bu sohada yanada chuqur tadqiqotlar olib borish zarurati ortib bormoqda [1]. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonda ham deyarli barcha universitetlar, maktablar uchun raqamli texnologiyalarga asoslangan platformalar, masofaviy ta‘lim



tizimlari shuningdek sun'iy intellektga asoslangan o'qitish metodlarining joriy etilishi ushbu yangi yondashuvlar ustida yanada ko'proq tadqiqot va izlanishlar olib borishga sabab bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirish muhim va zarur hisoblanadi. Bu esa bizga rivojlanishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini yaratadi. Haqiqatan ham, bugungi kunda axborot texnologiyalari barcha sohalarga chuqur singib bormoqda. Ammo, bu jarayon qanchalik murakkab bo'lmasin, agar hozir harakat qilmasak, keyinchalik bunga kech bo'lishi mumkin [2].

Albatta, zamonaviy ta'lim tizimining talablarga javob beradigan, sifatli va mustahkam bo'lishi barqaror iqtisodiy o'sish, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning taaraqqiy etishi va ijtimoiy xizmatlarning sifati oshishining asosiy omili hisoblanadi. Dastlab, axborot texnologiyalari faqat umumiy bilimlarni tarqatish maqsadida yaratilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ta'lim islohotlarining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, mobil qurilmalar, aqlli planshetlar, MOOC platformalari, noutbuklar, simulyatsiyalar, dinamik vizualizatsiya va virtual laboratoriyalar kabi vositalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinib, maktablar hamda ta'lim muassasalarida o'qitish usullarini tubdan o'zgartirishiga sabab bo'ldi [3]. Smartfonlar va boshqa simsiz texnologik qurilmalar tobora keng ommalashib borayotgan bir davrda, maktablar, oliygohlar va boshqa ta'lim muassasalari ushbu texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali ulardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega. Misol uchun, dars davomida talabalarda mavzu bo'yicha ma'lumotlar tushunarsiz yoki manbalarda kamchiliklar kuzatilsa, ular tezkorlik bilan turli xil saytlardan foydalangan holda, ushbu mavzuga oid maqolalar, kitoblar topib o'qish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu jarayon nafaqat o'quvchi va talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishi balki ularning ko'pgina vaqtlarining tejalishiga ham olib keladi. Bundan tashqari, til o'rganish maqsadida ham o'quvchi- o'qtuvchilar dunyoning turli burchaklarida turgan holda, xohlagan tillarini qiyinchiliklarsiz o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Masalan, O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rgatish va ommalashtirishga qaratilgan



loyihalardan biri – “Ibrat Farzandlari” shular jumlasidandir. Ushbu loyiha doirasida 2024-yil hisobiga ko‘ra til o‘rganayotganlar sonining 1 millionga atrofida ekanligi [3] ham raqamli texnologiyalarning ta‘lim sifatida qanchalar muhim o‘rin egallaganining yaqqol isbotidir.

BMTning 2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror Rivojlanish Kun tartibining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatli ta‘limni ta‘minlashdir [4]. Ushbu maqsad har bir inson uchun inklyuziv, adolatli va teng imkoniyatli ta‘lim olish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan bo‘lib, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, bu ta‘lim jarayonlarining sifatini oshirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish va umrbod o‘rganish imkoniyatlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan ba‘zi texnologiyalar ma‘lumot va bilimlarni tez va qulay yetkazib berish bilan birgalikda jismonan ham o‘zining ijobiy ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda. Misol tariqasida, hozirgi kunda o‘quvchilar qog‘oz va qalamdan foydalanishning o‘rniga, taqdimotlar va loyihalarni yaratish uchun turli dasturiy ta‘minotlar va vositalardan foydalanmoqdalar. Bir nechta daftarlarni olib yurishdan ko‘ra, kompyuterlar va noutbuklar ancha yengil. Og‘ir kitoblar o‘rniga esa, elektron kitoblar o‘qish uchun qulayroq [4]. Ushbu imkoniyatlar shuni ko‘rsatadiki, umumjahon ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalar eng muhim ahamiyatga ega va ular zamona bilan birgalikda rivojlanib boraveradi.

Hozirgi kunda raqamli platformalar, masofaviy ta‘lim tizimlari va sun‘iy intellekt kabi texnologiyalar ta‘lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar o‘quvchilarga o‘z bilimlarini tezda yangilash va mustahkamlash imkonini yaratadi. Raqamli ta‘lim resurslari orqali o‘quvchilar va talabalarga nafaqat dars materiallarini o‘rganish, balki turli mavzularda mustaqil izlanishlar olib borish, global axborot maydoniga kirish imkoniyati ham yaratildi. Bu jarayon ta‘limning sifatini oshiradi va o‘quvchilarning ta‘limga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.



FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Nodir, K. (2023). “Iqtisodiy va innovatsion texnologiyalar”. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, 323.
2. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. <https://uza.uz/oz/politics/o‘zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ibrat_farzandlari
4. Axrorjon, A. (2023). “Qo‘qon universiteti xabarnomasi”. Ta’limda zamonaviy texnologiyalar roli, 237-238.